

“O‘zbektelekom” AKning
2024-yil “27” -dekabrdagi
438-son buyrug‘iga 2-ilova

**“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining
inson huquqlariga rioya qilish borasidagi
SIYOSATI**

Toshkent

Mundarija

1.	Umumiy qoidalar	3
2.	Qo‘llash sohasi.....	3
3.	Atamalar, ta’riflar va havolalar	3
4.	Asosiy tamoyillar	4
5.	Inson huquqlari bo‘yicha majburiyatlar	4
6	Siyosatni qo‘llash masalalari bo‘yicha maslahatlar	6
7	Siyosat ijrosi.....	6
8	Javobgarlik	7

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati

1. Umumiy qoidalar

1.1 “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya)ning Inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) Kompaniyaning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlariga rioya qilinishiga moyilligini namoyish etish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Ushbu Siyosatning maqsadlari Kompaniya bilan u yoki bu tarzda bog‘liq bo‘lgan xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, sheriklar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning huquqlariga rioya qilinishini ta‘minlashga nisbatan yagona yondashuvni shakllantirishdan iborat.

1.3 Siyosat Kompaniya faoliyatining barcha bosqichlarida inson huquqlariga rioya qilish maqsadida amal qiladigan tamoyillarni belgilaydi.

1.4 Ushbu Siyosat “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi xodimlari uchun odob axloq qoidalari, Barqaror rivojlanish siyosati va Kompaniyaning inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilishga qaratilgan boshqa ichki hujjatlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak.

1.5 Kompaniya ushbu Siyosatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarga muvofiq doimiy ravishda yangilab boradi.

2. Qo‘llash sohasi

2.1 Siyosat Kompaniyaning barcha filiallari va tarkibiy tuzilmalariga, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

2.2 Mazkur Siyosatda belgilangan talablar Kompaniya rahbariyati tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda Kompaniya faoliyatini rejalashtirishda hisobga olinadi.

3. Atamalar, ta‘riflar va havolalar

3.1 Ushbu Siyosatda quyidagi atamalar va ta‘riflardan foydalanilgan:

Diskriminatsiya (kamsitish) - insonning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan va o‘z natijasi bilan mehnat, shaxsiy hayot va mashg‘ulotlar sohasida imkoniyatlar tengligi yoki murojaatning tugatilishiga yoki buzilishiga olib keladigan har qanday farq, istisno yoki afzal ko‘rish.

Manfaatdor tomonlar - Kompaniya faoliyati davomida u bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi va ushbu faoliyatga bevosita yoki bilvosita ta‘sir ko‘rsatuvchi va/yoki ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (yoki ularning guruhlari).

Inson huquqlari - har bir insonning ajralmas huquqlari, insonning qadr-qimmati, barcha odamlarning erkinligi va tengligi.

Majburiy mehnat - biror-bir shaxsdan jazo yoki majburlash tahdidi ostida talab qilinadigan faoliyat, ish yoki xizmatlarning barcha turlari. Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Kompaniya siyosati va faoliyati uni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va inson huquqlari sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, tan olingan xalqaro hujjatlarning asosiy qoidalarini hisobga oladi.

4. Asosiy tamoyillar

4.1 Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro normalar va qoidalarga amal qiladi.

4.2 Kompaniya inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyillarga, shu jumladan tenglik, kamsitmaslik, shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish va adolatni ta‘minlashga qaratilgan tamoyillarga qo‘shiladi. Kompaniya barcha manfaatdor tomonlarga tenglik, xilma-xillikka moyillik, imkoniyatlarning ochiqligi, shuningdek, ta‘qiblar, xurofotlar yoki kamsitishlardan xoli sharoitda o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini berishga intiladi.

4.3 Kompaniya har bir inson, dini, jinsi, tili, yoshi, millati, nogironligi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilari va xususiyatlaridan qat‘i nazar, uning erkin ekanligini va qadr-qimmatini va huquqlarida teng ekanligini tan oladi.

4.4 Kompaniya inson qadr-qimmatini kamsitilishiga va har qanday tarzda insonning diskriminatsiya qilinishiga, ish joyida jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

4.5 Kompaniya insonlar yoki tashkilotlarni inson huquqlarini buzishga undaydigan, rag‘batlantiradigan yoki undaydigan har qanday harakatlarga qarshi chiqadi.

4.6 Kompaniya insonning qadr-qimmatini himoya qilinishini va shaxsiy hayoti daxlsizligini kafolatlaydi.

4.7 Kompaniya korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlik tamoyiliga amal qiladi.

4.8 Kompaniya inson huquqlariga rioya qilish sohasidagi xatarlarni boshqarish tartib-taomillarini ilg‘or tajribalarga muvofiq rivojlantirish tarafdori ekanligini bildiradi.

4.9 Kompaniya o‘z faoliyati davomida inson huquqlari sohasidagi har qanday salbiy oqibatlarni aniqlash va oldini olishga intiladi.

4.10 Kompaniya uchinchi tomonlar bilan hamkorlikda inson huquqlariga rioya qilishga qaratilgan tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirish istagini bildiradi.

4.11 Kompaniyaning manfaatdor tomonlar bilan munosabatlari adolat va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

4.12 Kompaniya barcha manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqot qilish va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish orqali inson huquqlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha korporativ amaliyotlarni takomillashtirishga intilishini bildiradi.

5. Inson huquqlari bo‘yicha majburiyatlar

5.1 Kompaniya barcha manfaatdor tomonlarga insonning qadr-qimmatini, jumladan, dini, jinsi, tili, yoshi, millati, nogironligi bo‘yicha kamsitilishi va diskriminatsiya qilinishi mavjud emasligini kafolatlaydi.

5.2 Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mijozlar ma‘lumotlari va shaxsiy axborotlarining maksimal darajada xavfsizligi va maxfiyligini ta‘minlaydi.

5.3 Kompaniya inson huquqlarining har qanday shaklda buzilishini qabul qilmaydi va o‘z faoliyatini amalga oshirishda tenglik va kamsitmaslik tamoyillariga amal qiladi.

5.4 Kompaniya innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda xilma-xillik,

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati

tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini hisobga oladi, bu esa turli manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish imkonini beradi.

5.5 Kompaniya siyosiy neytrallik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi va siyosiy e‘tiqodlar, fikrlar, qarashlar yoki siyosiy mansublik bo‘yicha diskriminatsiya qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tegishli choralar ko‘radi.

5.6 Kompaniya inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi dasturlarni ilg‘or tajribalarga muvofiq tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantirish va amalga oshirishga intiladi.

5.7 Kompaniya xodimlar bilan munosabatlarni o‘rnatishda tenglik, xilma-xillik, inklyuzivlik va diskriminatsiyaning nol darajasi tamoyillariga e‘tibor qaratadi.

5.8 Kompaniya barcha xodimlarning huquqlariga, shu jumladan fikr bildirish va jamoaviy muzokaralar olib borish erkinligiga rioya qiladi.

5.9 Kompaniya ishga qabul qilish va mehnatni me‘yorlashning aniq belgilangan qoidalariga muvofiq barcha ish o‘rinlariga talabgorlar va xodimlarga teng imkoniyatlarni taqdim etadi.

5.10 Kompaniya raqobatdosh, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratadi, barcha xodimlarning mehnat sohasidagi huquqlarini himoya qiladi, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq barcha xodimlarning mehnatiga munosib haq to‘lanishini va ijtimoiy ta‘minlanishini kafolatlaydi.

5.11 Kompaniya o‘z hamkorlariga nisbatan inson qadr-qimmatini, shu jumladan jinsi, dini, tili, yoshi, millati va irqi, nogironligi bo‘yicha kamsitish va tajovuzlar bo‘lmasligini kafolatlaydi.

5.12 Kompaniya o‘z hamkorlari faoliyatida inson qadr-qimmatini kamsitish va diskriminatsiya qilish, har qanday shakldagi majburiy mehnat, bolalar mehnati, tazyiq va zo‘ravonlik mavjud bo‘lishini qabul qilmaydi.

5.13 Kompaniya inson huquqlari buzilishining ehtimoliy xavflarini muntazam aniqlash, tahlil qilish va baholashni ta‘minlashga, shuningdek, inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha ehtiyotkorlik amaliyotini rivojlantirishga intiladi.

5.14 Kompaniya o‘z xodimlari uchun inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha treninglar o‘tkazish muhimligini tushunadi, bu esa, ushbu jarayonga jalb bo‘lish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

5.15 Kompaniya hamkorlarda inson huquqlari bo‘yicha ochiq shakllangan korporativ siyosat mavjudligini qo‘llab-quvvatlaydi.

5.16 Kompaniya o‘z hamkorlarini ushbu Siyosat tamoyillari haqida xabardor qiladi.

5.17 Kompaniya jamiyat bilan shaffof, o‘zaro hurmat asosida konstruktiv hamkorlikka intiladi, shuningdek, inson huquqlari masalasida jamiyatning manfaatdor vakillari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga intiladi.

5.18 Kompaniya o‘z xodimlari, manfaatdor tomonlar va hamkorlardan ushbu Siyosat talablariga rioya qilinishiga talab qiladi.

6 Siyosatni qo‘llash masalalari bo‘yicha maslahatlar

6.1 Ushbu Siyosatda belgilangan tamoyillar va qoidalar bo‘yicha savollar bilan va (yoki) inson huquqlarini hurmat qilish, shuningdek, xilma-xillik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini ta‘minlash sohasida Kompaniya amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar yuzasidan quyidagi elektron pochta orqali murojaat qilish mumkin: info@uztelecom.uz, murojaat@uztelecom.uz.

6.2 Inson huquqlari, biznes-etikasi yoki komplaens jarayonlariga oid masalalar bo‘yicha maslahat olish uchun antikorrupsiya@uztelecom.uz elektron pochta manzili orqali Komplaens departamentiga murojaat qilish mumkin.

7 Siyosat ijrosi

7.1 Kompaniya o‘z faoliyatining ushbu Siyosatda belgilangan tamoyillarga muvofiqligini muntazam ravishda ichki monitoring qiladi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarni monitoring qiladi.

7.2 Kompaniya ushbu Siyosatning tamoyillari va qoidalari bilan xodimlarni tegishli tartibda tanishtiradi.

7.3 Kompaniya manfaatdor tomonlar bilan muloqotni qo‘llab-quvvatlaydi va ularning inson huquqlari bo‘yicha fikrlari hisobga olinishini ta‘minlaydi.

7.4 Kompaniya xodimlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga Siyosatning ehtimoliy buzilishi haqida to‘sqinliksiz xabar berish imkoniyatini beradi va murojaatlarning maxfiyligini kafolatlaydi.

7.5 Siyosat buzilishlari haqida xabar berish quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- Kompaniyaga ishonch telefoni orqali murojaat qilish: (+998 71) 200-77-97;
- xabarni info@uztelecom.uz yoki uztelecom@exat.uz elektron pochta manziliga yuborish;
- onlayn | Kontaktlar | Uztelecom.uz;
- Komplaens departamentiga antikorrupsiya@uztelecom.uz elektron manzili orqali murojaat qilish;
- Kompaniya xodimlari bevosita tegishli bo‘linma rahbariga yoki Yuridik departamentga elektron pochta orqali murojaat qilishlari mumkin.

7.6 Inson huquqlari buzilishlari yuzaga kelgan yoki aniqlangan taqdirda Kompaniya qisqa muddatlarda salbiy oqibatlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tuzatish choralari amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

7.7 Kompaniya ichki me‘yoriy hujjatlarga va xabarni ko‘rib chiqish tamoyillariga muvofiq Siyosat talablari buzilishi to‘g‘risidagi barcha xabarlarning mustaqil va har tomonlama ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi:

- **Maxfiylik** - xabar muallifiga shaxsiy ma‘lumotlar oshkor etilmasligi kafolatlanadi;
- **Malaka** - tekshiruv o‘tkazish uchun tegishli tuzulmalar xodimlari jalb qilinadi;
- **O‘z vaqtida** - me‘yoriy talablarni inobatga olgan holda xabarlarga qayta ishlov beriladi va tekshiruv belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

7.8 Murojaatlar O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonuni bilan belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati

7.9 Shuningdek, Kompaniya, Siyosatining ehtimoliy buzilishi haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan javob choralari va ma'muriy jazo choralari qo'llanilmasligini kafolatlaydi (agar noto'g'ri ma'lumotlar qasddan yoki g'arazli maqsadlarda taqdim etilmagan bo'lsa).

8 Javobgarlik

8.1 Kompaniya rahbariyati ushbu Siyosatda bayon etilgan tamoyillarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

8.2 Kompaniya ushbu Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirishni ta'minlash zarur deb hisoblaydi va uni Kompaniyaning rivojlanish dinamikasiga muvofiq yangilash imkoniyatini nazarda tutadi.

8.3 Kompaniya xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, bir-birlari bilan, shuningdek, mijozlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lganda ushbu Siyosatga rioya qilishlari shart.

8.4 Siyosatning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Kompaniyaning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, javob beradilar.

8.5 Ushbu Siyosatda nazarda tutilgan tamoyillar buzilganligi uchun, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, Kompaniyaning har qanday xodimiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin.